




XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga 1 924,2 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 30,9 ming kishiga yoki 1,6 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 636,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 288,2 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)






Shahar va tumanlar kesimida aholi soni

(yanvar- dekabr, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2022- yil 1- yanvar holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)






Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni (1-yanvar holatiga, ming kishi)


	2021- y.	2022- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1893,3	1924,2	101,6
Urganch sh.	145,0	146,7	101,2
Xiva sh.	93,4	95,2	101,9
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	166,6	169,5	101,7
Gurlan	149,5	151,9	101,6
Qo'shko'pir	173,7	176,1	101,4
Urganch	201,2	205,5	102,1
Hazorasp	196,9	198,7	100,9
Tuproqqal'a	54,4	56,6	104,0
Xonqa	188,3	191,6	101,8
Xiva	147,4	149,7	101,6
Shovot	171,7	174,4	101,6
Yangiariq	117,2	118,9	101,5
Yangibozor	88,0	89,4	101,6

Viloyat kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2022- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etgan, keyingi o'rinlarda Hazorasp tumanida 10,3 %, Xonqa tumanida 10,0 % va Qo'shko'pir tumanida 9,1 % ni tashkil etgan.

Tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr holatiga, kishida)



Tug'ilganlar koeffitsiyenti




(yanvar-dekabr holatiga, promille)


Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm. va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha
(2021- yil yanvar -dekabr holatiga, kishida)




Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar
(2021- yil yanvar -dekabr holatiga, kishida)




2021- yil yanvar-dekabr oylarida **9 463** ta vafot qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etdi.



Tuzilgan nikohlar soni (yanvar- dekabr holatiga, kishida)




Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti (yanvar- dekabr holatiga, promille)




2021- yil yanvar-dekabr oylarida **15 541** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **8,1** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,7** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **7,4** promilleni tashkil etgan).



Nikohdan ajrashganlar soni (yanvar- dekabr holatiga, kishida)




Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-dekabr holatiga, promille)




2021- yil yanvar-dekabr oylarida **1 505** ta nikohdan ajrashishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **0,6** promilleni tashkil etgan).

O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot
(2021- yil yanvar-dekabr, promille)



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 73,4 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,3 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,0 % - tug'ma anomaliyalardan, 4,3 % - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 0,6 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, 0,2 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 3,2 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2021- yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- Boshqa kasalliklardan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan
- O'simtalardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Nafas olish a'zolari kasalliklaridan



Ko'chib kelganlar soni (yanvar- dekabr holatiga, kishida)




Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti (yanvar- dekabr holatiga, promille)




2021- yil yanvar-dekabr oylarida **9 855 nafar** ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **2,5** promillega oshganligi kuzatildi (*2020- yilda 2,7 promilleni tashkil etgan*).



Ko'chib ketganlar soni
(yanvar- dekabr holatiga, kishida)



Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti
(yanvar-dekabr holatiga, promille)



2021- yil yanvar- dekabr oylarida **12 202 nafar** ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **6,4** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,8** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **5,6** promilleni tashkil etgan).

**Aholi migratsiyasi***ming kishi*

	2020- yil yanvar- dekabr	2021- yil yanvar- dekabr
Ko'chib kelganlar	5,0	9,9
Ko'chib ketganlar	10,5	12,2
Migratsiya saldosı	-5,5	-2,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 1,9 ming kishi), Xiva (minus 0,5 ming kishi), Qo'shko'pir (minus 0,5 ming kishi) tumanlarida va Urganch shahrida (minus 0,5 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Tuproqqal'a tumanida (plus 1,3 ming kishi), Urganch tumanida (plus 0,8 ming kishi) hamda Xiva shahrida (plus 0,3 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
tel : (62)2246508